



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 26-iyul

360-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga sohalar va tarmoqlarda ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 3-iyuldagi 381-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 330-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Iqtisodiyot tarmoqlarida ekologik vaziyatni yaxshilash, muqobil energiya resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlash va rag‘batlantirish, shuningdek, “Ekologik transport” tizimini bosqichma-bosqich joriy etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga sohalar va tarmoqlarda ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 3-iyuldagi 381-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 23-iyuldagi 330-6-0-Q/24-son qarorida belgilangan vazifalarni tumanda ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarini samarali tashkil etishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 381-son qarori ijrosi haqida”gi 330-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga quyidagilarni:

quyosh fotoelektr stansiyalarini binolarning tom va fasad qismiga o‘rnatish bo‘yicha loyiha hujjatlarini davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkazish talabini bekor qilish;

atrof-muhitga yuqori va o‘rta darajadagi ta‘sir ko‘rsatuvchi sanoat korxonalarini va ularga tutash hududlarda “yashil belbog‘lar” barpo etish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarini amalga oshirishni belgilash;

“Ekologik transport” tizimini bosqichma-bosqich joriy etishning muddatlarini belgilashni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi e‘tiborga olinsin.

3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga sohalar va tarmoqlarda ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 3-iyuldagi 381-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov